



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

URBANIZATSIYA JARAYONLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich

Qo'qon universiteti, professor (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada urbanizatsiya jarayonlarining mazmuni, mohiyati va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilingan. Shaharlarni tiplarga ajratish mezonlari, jumladan, funksional yo'nalishi va aholi soniga ko'ra xususiyatlari yoritilgan. Urbanizatsiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, davlatchilik evolyusiyasi bilan bog'liqligi hamda madaniy va demografik o'zgarishlarga ta'siri ilmiy adabiyotlar asosida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari urbanizatsiyani nafaqat iqtisodiy, balki sotsiomadaniy hodisa sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, shaharlashuv, shahar tipologiyasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, demografik o'zgarishlar, sotsiomadaniy jarayonlar, shahar infratuzilmasi, davlatchilik, migratsiya, madaniyat, aholi, taraqqiyot

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ

Холмирзаев Нодиржон Низомжонович

Кокандский университет, профессор (DSc)

Аннотация

В данной статье анализируются содержание, сущность и социально-философские аспекты процессов урбанизации. Рассматриваются критерии классификации городов по типам, включая их функциональную ориентацию и демографические характеристики. На основе научной литературы исследуется роль урбанизации в развитии общества, ее связь с эволюцией государственности и влияние на культурно-демографические изменения. Также анализируется текущее состояние процессов урбанизации в Узбекистане, существующие проблемы и пути их преодоления. Результаты исследования указывают на необходимость изучения урбанизации не только как экономического, но и как социокультурного феномена. В статье представлены теоретические выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: урбанизация, городская типология, социально-философский анализ, демографические изменения, социокультурные процессы, городская инфраструктура, государственность, миграция, культура, население, развитие.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF URBANIZATION PROCESSES

Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich

Kokand University, Professor (DSc)

Abstract

This article analyzes the content, essence and socio-philosophical aspects of urbanization processes. The criteria for classifying cities into types, including their functional orientation and population characteristics, are discussed. The role of urbanization in the development of society, its connection with the evolution of statehood, and its impact on cultural and demographic changes are examined based on scientific literature. The current state of urbanization processes in Uzbekistan, existing problems and ways to overcome them are also analyzed. The results of the study indicate the need to study urbanization not only as an economic but also as a socio-cultural phenomenon. The article puts forward theoretical conclusions and practical recommendations.

Key words: urbanization, urbanization, urban typology, socio-philosophical analysis, demographic changes, socio-cultural processes, urban infrastructure, statehood, migration, culture, population, development.

Shaharlar ijtimoiy fanlar obyekti sifatida sifatiy va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tiplarga yoki turlarga bo'lib o'rganiladi. Shaharlarning qaysi sohaga ixtisoslashganligi — monofunksional yoki polifunksional ekanligi, yashovchi aholi soniga ko'ra o'ziga xos sotsiomadaniy va demografik xususiyatlari

aniqlanadi. Shunga ko'ra, ular industrial shaharlar, transport markazlari — portlar, temiryo'l markazlari, ilmiy shaharlar, turistik shaharlar, tarixiy shaharlar, kurort shaharlar sifatida o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaharlashish ko'p qirrali jarayon bo'lgani uchun deyarli barcha ijtimoiy fanlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi. Falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar ushbu jarayonni o'z usullari asosida bevosita o'rganadi.

Hozirgi kunda urbanizatsiyaga ko'plab olimlar o'z ta'riflarini bergan bo'lib, ular urbanizatsiyaning turlarini ham belgilab berganlar. 1960-yillarda shakllangan ichki urbanizatsiya nazariyasining kelib chiqishida Yu.A. Levada, L.B. Kogan va O.N. Yaniskiyar katta rol o'ynaganlar [2; 1].

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Grinin va Korotayev urbanizatsiya va davlatchilik evolyutsiyasi o'rtasida chambarchas aloqa borligi to'g'risida so'z yuritadilar. A. Qo'ziyev, A. Mirzaahmedovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida shaharlashish jarayonining aholi milliy qadriyatlariga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan.

Mamlakatimizning ko'zga ko'ringan olimlaridan K. Mahmudov, U. Mahkamov, A. Munavvarov, M. Rasulova, E. Yusupov va boshqalar shaharlashish jarayonining ma'naviy va axloqiy jihatdan salbiy oqibatlarini, ma'naviyat va milliy qadriyatlarga ta'sirini o'rganishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mamlakatimizda hozirgi vaqtda urbanizatsion jarayonlar holati, ular keltirib chiqargan muammolarni bartaraf etish usullari hamda bu boradagi taklif va tavsiyalarni o'rganishda analiz, sintez hamda tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida, shuningdek, yangi taraqqiyot davrida mamlakatimizda qator sohalarida islohotlar amalga oshirildi. Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida ko'plab xayrli ishlar bajarildi. Mamlakatimizda urbanizatsion taraqqiyotga erishishni davlatning strategik vazifasiga aylantirish borasida ko'plab islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan barcha sohalaridagi munosabatlari yanada faollashdi va shaffoflashdi. Mamlakatimiz dunyoga bor bo'y-basti bilan namoyon bo'la boshladi. Aynan mana shu kabi omillar Vatanimizda shaharlarga kuchli e'tibor qaratishni, boshqacha aytganda, urbanizatsiya siyosatini yanada faollashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan ham urbanizatsion jarayonlar rivoji masalasini tadqiq etish va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganish mamlakat taraqqiyotiga erishishning muhim omili sanaladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko'rilmasa, ushbu ko'rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin" [11; 2], — degan edi. Bu sohaga o'z vaqtida e'tibor qaratilmasa, kelajakda ko'plab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun hozirda urbanizatsiya jarayonlarini nafaqat iqtisodiy, balki madaniy hodisa sifatida o'rganishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Dunyo tarixining yangi va eng yangi davrida shaharlar jamiyatdagi rivojlanishning eng muhim belgisiga aylandi. Aholi turmush tarzining taraqqiy eta borishi u yashayotgan jamiyatning qay darajada ma'naviy o'sganligi va urbanizatsiyalashganligi bilan bog'liq bo'lib qoldi. Bugun dunyoning ko'plab davlatlari shaharlashish muammosiga jiddiy qaramoqda. Zero, cheklangan yer va toza ekologik muhitni saqlab qolish uchun bu juda muhimdir. Savol tug'iladi: urbanizatsiya nima o'zi?

Urbanizatsiya (lotincha *urbanus* — shaharcha) — bu shaharlarning rivojlanishi, shahar madaniyati va "shahar munosabatlari"ning jamiyat taraqqiyotidagi roli, shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan ko'payishi va shaharlar tashqarisidagi hududlarda shaharga xos yuqori madaniyatning shakllanishidir.

O'zbekiston Respublikasining yangi Shaharsozlik kodeksiga ko'ra, urbanizatsiya — aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tuzilishida ijobiy o'zgarishlarga, uning turmush tarzi hamda madaniyati sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilishiga ko'maklashuvchi, jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishda shaharlarning rolini oshirish, shuningdek, shahar infratuzilmasini shakllantirish jarayonidir. Urbanizatsiya, qoida tariqasida, shahar atrofini shahar hududiga kiritish, bir nechta aholi punktlarini yagona makonga birlashtirish bilan birga olib boriladi [10; 2].

Urbanizatsiya davlatdagi haqiqiy siyosiy institutlar, ko'plab siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Ingliz olimi R. Adams davlatning ajralmas xususiyati sifatida shaharlarning

mavjudligini ko'rsatadi [1; 15]. Demak, shaharlar davlatlarning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Urbanizatsiya sivilizatsiyaning muhim belgisi hisoblanadi. Shunday ekan, shaharlar taraqqiyoti davlatlar taraqqiyotini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda urbanizatsiyaga ko'plab olimlar o'z ta'riflarini bergan bo'lib, ular urbanizatsiyaning turlarini ham belgilab berganlar. 1960-yillarda shakllangan ichki urbanizatsiya nazariyasining kelib chiqishida Yu.A. Levada, L.B. Kogan va O.N. Yaniskiylar katta rol o'ynaganlar [2; 2].

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Grinin va Korotayev urbanizatsiya va davlatchilik evolyutsiyasi o'rtasida chambarchas aloqa borligi to'g'risida so'z yuritadilar [6]. Yuqoridagi tadqiqotlar guvohlik berishicha, urbanizatsiya davlatning o'z fuqarolari va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashida katta ahamiyatga ega.

A.P. Yevgenev tahriri ostidagi rus tili lug'atida urbanizatsiyaga "iqtisodiy va madaniy hayotning shahar markazlarida to'planishida, o'ta yirik shaharlarning paydo bo'lishida va boshqalarda ifodalangan shaharlarning mamlakat hayotidagi rolini oshirish jarayoni" [7], deya ta'rif beriladi.

Shaharlarning sotsiomadaniy qiyofasi va urbanizatsiya jarayoni ikki tomonlama o'zaro ta'sirga ega bo'lgan juftlik sanaladi. Shahar va shahar hayoti muammolari sotsiologiya fani doirasida ko'plab taniqli olimlar tomonidan o'rganilgan. M. Veber, E. Dyurkgeym, E. Giddens [5; 63], G. Zimmel, J. Virlar shular jumlasidandir. G. Zimmel shahar hayotining ma'naviy jabhalari to'g'risida ham tadqiqot olib borgan.

Zamonaviy sotsiologik bilim doirasida ham qator olimlar tomonidan mazkur muammo turli yondashuvlar va jihatlar nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Ular orasida shaharlarning rivojlanishini va aholining turmush tarzini mazkur hududlarning sotsial-iqtisodiy mohiyati hamda madaniy potentsiali orqali o'rgangan yondashuv qiziqarlidir. Bu yo'nalishda D.A. Xiks, D.X. Garsiya kabi olimlar izlanishlar olib borishgan.

Bugungi kunda chet el sotsiologiyasida urbanizatsiya jarayoni va sotsial evolyutsiyani bir-biriga taqqoslab, shaharlashishni sotsial evolyutsiyaga bog'liq bo'lgan davriy jarayon sifatida baholash keng tarqalgan. Mazkur yo'nalish tarafdorlari J.V. Biverstok, R.G. Smit, R.B. Koen, J. Fridmanlar o'z ishlari bilan ko'pchilikning nazariga tushgan.

XIX–XX asrlardagi chet el olimlarining tadqiqot ishlarida urbanizatsiyaning asosiy omillari hisoblangan aholi migratsiyasi, ijtimoiy moslashuv, shaxsning shahar muhitida o'zini tutishi, etnik guruhlarining hayoti va shaharlashish jarayonlari o'z aksini topgan. Bunga Chikago maktabi vakillari E. Berdjess, F. Znanetskiy, L. Virt, R. Park, U. Tomas misol bo'ladi. Ularning davomchilari V. Fayri va A. Xouli o'z diqqatlarini shaharlashish sharoitida madaniyat, qadriyatlar va sotsiomadaniy institutlar masalalariga qaratishgan.D.N. Ushakov tahriri ostidagi rus tilining izohli lug'atida urbanizatsiya tushunchasi "kapitalistik tuzumga xos bo'lgan yirik shahar markazlarida iqtisodiy va madaniy hayotning konsentratsiyasi" [8], deya e'tirof etiladi.Ushakovning fikricha, shahar markazlarida iqtisodiy va madaniy hayot konsentratsiyasi yuz beradi, ya'ni jamlanadi va asosiy kuchga aylanadi.

Ilmiy adabiyotlarda asosan yirik sanoat shaharlarining rivojlanishiga katta urg'u berilgan va ular keng o'rganilgan. Bunda ularning xomashyo, energiya resurslari, transport magistrallari, yirik markazlarga nisbatan iqtisodiy-geografik joylashuviga asosiy e'tibor qaratilgan. Chunki aynan ular shaharlarning asosiy va muhim xususiyatlarini belgilab beradi.Shahar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'rganish bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan. Ammo kichik shaharlarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilib beruvchi madaniy merosi, qadriyatlari hamda bugungi holati to'laqonli tahlil qilinmagan. Ushbu mezonni shaharlar tipologiyasi uchun asos sifatida o'rganish ham maqsadga muvofiq bo'lib, fandagi yangiliklardan biri bo'ladi.Aholining sotsiomadaniy jihatdan rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lgani uchun deyarli barcha ijtimoiy fanlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi. Falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar ushbu jarayonni o'z usullari asosida bevosita o'rganadi.

Mamlakatimizning ko'zga ko'ringan olimlaridan L.I. Maslyakova, X. Ismoilov, M. Inomova, M.M. Mamatova, K. Mahmudov, U. Mahkamov, A. Munavvarov, M. Rasulova, E. Yusupov va boshqalar shaharlashish jarayonining ma'naviy va axloqiy jihatdan salbiy oqibatlarini, ma'naviyat va milliy qadriyatlarga ta'sirini o'rganishgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik va o'rta shaharlarning rivojlanishi hamda ularda yashovchi aholining iqtisodiy, psixologik va sotsiomadaniy qiyofasini o'rganishga doir qator izlanishlar olib borildi.Ta'kidlash joizki, urbanizatsiya tushunchasini o'rganishda turlicha fikrlar mavjud. Ushbu tushunchani bugungi kunda 14 ta fan va uning tarmoqlari tadqiq etadi. Unga har bir olim o'z dunyoqarashi, makon hamda zamon talablaridan kelib chiqib ta'rif bergan. Fikrimizcha,

urbanizatsiyaga quyidagicha ta'rif berish o'rinlidir:

Urbanizatsiya (fransuzcha *urbanisation*, inglizcha *urbanization*, lotincha *urbanus* — shaharga mansub, *urbs* — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq jarayondir. Urbanizatsiya tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir [9].

XULOSALAR

Urbanizatsiya mazmuni sifatida shaharlarning o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab va xilma-xil jarayonlar aks ettiriladi. Biroq ilmiy foydalanishda keng tarqalgan bu tushuncha hali aniq ta'rifga ega deb bo'lmaydi. Urbanizatsiya mazmunan to'g'ridan-to'g'ri shaharlarning paydo bo'lishi va shakllanish jarayonlari bilan ham, shaharlarning shakllanishiga hamroh bo'lgan yoki bilvosita bog'liq bo'lgan jarayonlar bilan ham aloqador turli hodisalarni ifodalaydi. So'nggi yillarda urbanizatsiya to'g'risida umumlashma nazariy ishlar paydo bo'ldi. Ularda urbanizatsiya jarayonining mohiyatini har tomonlama sharhlab berishga harakat qilindi, uning belgilari va namoyon bo'lish shakllari aniqlandi hamda tadqiqotning ayrim yo'nalishlari belgilandi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, urbanizatsiya tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan va ta'riflar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, turli fikrlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa urbanizatsiya tushunchasi uchun yagona talab va ta'rifni shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi. Uning mohiyatini tushunish uchun nafaqat bu jarayonning rivojlanib borishini, balki uning fazoviy yo'nalishini ham bilish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. — 2018-yil 29-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi.
3. Adams R. The Evolution of Urban Society: Early Mesopotamia and Prehistoric Mexico. — Chicago: Aldine, 1966.
4. Урбанизация [Электронный ресурс]. — URL: Wikipedia RU — Урбанизация
5. Prezident urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish bo'yicha topshiriq berdi [Elektron resurs]. — URL: Kun.uz
6. Baydjanov I., Samandarov M. Mulohaza: iqtisodiy urbanizatsiya: o'quv qo'llanma. — T., 2017. — B. 25.
7. Гидденс Э. Социология. — Тошкент: Шарқ, 2002. — Б. 63.
8. Коротаев А.В., Гринин Л.Е. Урбанизация и политическое развитие Мир-Системы: сравнительный количественный анализ // История и математика. — 2007.
9. Словарь русского языка: в 4-х т. / РАН, Ин-т лингвистич. исследований; под ред. А.П. Евгеньевой. — 4-е изд., стер. — М.: Рус. яз.; Полиграфресурсы, 1999.
10. Толковый словарь русского языка / под ред. Д.Н. Ушакова. — М., 1935–1940.
11. Urbanizatsiya [Elektron resurs]. — URL: Qomus.info — Urbanizatsiya